Fan, texnologiya, kelajak: O‘zbekiston-Koreya hamkorligi yangi bosqichda

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti va Koreyaning eng yirik ilmiy-texnologik markazlaridan biri — KITECH o‘rtasidagi hamkorlik yashil vodorod energetikasi va ilg‘or payvandlash texnologiyalari yo‘nalishida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ayni kunlarda FA Materialshunoslik instituti direkori Odilxo'ja Parpiyev Koreyaning eng yirik ilmiy-texnologik markazlaridan biri — KITECHda ilmiy safarda bo'lib turibdi.

Ulsan shahrida joylashgan KITECH filialiga tashrif doirasida:
— Ilg‘or Amaliy texnologiyalar bo‘linmasi faoliyati bilan tanishildi
— MAX-faza va yuqori entropiyali materiallar sintezi taqdim etildi
— Yangi elektroliz texnologiyalarida ushbu materiallardan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilindi.
— Institut ishlab chiqqan yuqori sifatli payvandlash flyuslari amalda namoyish qilindi. Ular turli metallar — po’lat, issiqlikka chidamli, qotishmalar uchun samarali yechim bo’lib xizmat qiladi.

Uchrashuv yakunida o‘zbekistonlik olimlar bilan Koreyaning HNiX kompaniyasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Ushbu kompaniya Koreyada kemasozlik va og’ir sanoatda qo’llaniladigan ilg’or payvandlash texnologiyalariga ixtisoslashgan.

O’zbekiston va Koreya o’rtasidagi fan va texnologiya sohasidagi bu kabi hamkorliklar nafaqat yuqori texnologiyali tarmoqlarni shakllantirishga xizmat qiladi, balki ikki mamlakatning jahon ilm-fan va sanoat maydonidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.